

MOBIL MESSEJERLARDA RADIKAL G‘OYALARNING RIVOJLANISH TARIXI

Boltayeva Dilsora

Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi

Mobil messenjer smartfonlar uchun dastur hisoblanadi. Tezkor xabarlar tizimidan foydalanib, nafaqat matnli xabarlarni, balki rasmlar, ovozli signallar va videolarni ham almashish mumkin. Bugungi kunda eng ommabop messenjerlar sifatida Telegram, Whatsapp va Facebook, Instagram messenjerlarni aytishimiz mumkin. Telegram dastlab Rossiyada 2013 yil avgustda ishga tushirilgan. Telegramda maxfiy dialoglar mavjud bo‘lib, ular ma‘lum vaqtdan keyin avtomatik ravishda o‘chiriladi. Ushbu funksiya suhbat ishtirokchilari tomonidan maxfiylikni o‘zaro oshkor qilgan taqdirda mavjud bo‘ladi. Rasmlarni yuklab olish va siqish qobiliyatiga ega. Messenjerda ro‘yxatdan o‘tish telefon raqami orqali amalga oshiriladi va gadjet yo‘qolganda messenjerni masofadan turib blokirovka qilish mumkin. Whatsapp 2009 yil yanvarda paydo bo‘lgan. Whatsapp messenjerining afzalliklari bu kichik dastur bo‘lib, androidli smartfon va kommunikatorlarga o‘rnatiladi. Whatsapp barcha turdagi ma‘lumotlarni uzatishga imkon beradi, video qo‘ng‘iroqlar faqat mashhur platformalardagi qurilmalardan amalga oshiriladi, katta guruh suhbatlarini yaratish mumkin, xabarlarda belgilar cheklangan emas, aloqa ro‘yxatini sinxronlashtiradi, bir-biriga fotosuratlarini va audio yozuvlar jo‘natish, geografik xaritalarni o‘zaro almashish mumkin. Facebook 2004-yil 4-fevralda ishga tushirilgan. Facebook messenjerining afzalliklari har qanday formatdagi ma‘lumotlarni uzatishga imkon beradi, rasmlarni tahrirlash imkoniyati mavjud, ovozli qo‘ng‘iroq va video qo‘ng‘iroqlarni bajarishga imkon beradi, guruh suhbatini yaratish mumkin, gif-animatsiyalarni uzatish uchun qulaydir¹.

Radikal kuchlar mobil messenjerlarning har xil turidan foydalangan. Terroristlarning mobil messenjerlardan foydalanishlari uchun asosli sabablari bor. Birinchidan, ushbu mesenjerlar terroristik tashkilotlarning mashhur bo‘lishiga imkon beradigan auditoriyani jamlashga imkon beradi. Ikkinchidan, messenjerlardan foydalanuvchi qulay, ishonchli va erkin ishlata oladi. Uchinchidan, mesenjerlar terrorchilarga maqsadli auditoriya bilan aloqa qilish imkoniyatini beradi. Terroristlarning internetdagi eng muhim maqsadlari targ‘ibot, radikallashtirish va odamlarni yollash hisoblanadi. Ular potensial yollovchilar yoki

¹ <http://bumoturs.ru>. Ommabop internet xabarchilari.06/14/2019.



hamdard guruhlar ro'yxatini onlayn tarzda ishlab chiqishi mumkin. Terroristik guruhlar kimni nishonga olish va har bir kishiga qanday murojaat qilish kerakligini hal qilish uchun profillarni tahlilini yuritadilar. Bu ularga nishonga olish strategiyasidan foydalanishga imkon beradi².

Aum Senrikyo o'z g'oyalarini tarqatishda ommaviy axborot vositalaridan keng ko'lamda foydalandi. Guruh katta miqdorda bosma materiallardan (kitob, risola, jurnal, varaqa, manga (grafik romanlar) ni ishlab chiqardi. 1990 yilda Aum haftalik radioeshittirishni tashkil qildi. Shuningdek Asaxaraning reklama video, musiqiy yozuv, ma'ruza lenta va animatsiyalari Internet orqali tarqatildi. Aum Internetdan foydalanishda quyidagi maqsadlarni ko'zlagan.

- yangi a'zolari jalb qilish;
- a'zolarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- asosiy a'zolarga ezoterik ta'limotlarni berish;
- guruhning tashqi ommaviy axborot vositalariga qarshi turishini ta'minlash.

Asaxaraning okkult bilan bog'liq mavzularga bag'ishlangan jurnallari ko'pchilikning e'tiborini qozondi. 1991 yilda Aum Internetda o'zining "Shinrikyō Net shaxsiy aloqa tarmog'i" va "Fujitsu Nifty Serve munozaralar bo'ladigan aloqa tarmog'i" ni ishga tushirdi. Bu aloqa tarmoqlari o'sha paytda mamlakatdagi eng yirik tarmoqlardan biri bo'lgan. 1994 yilda Aum Shinrikyō Netning 300 ta foydalanuvchisi bo'lgan. 1994 yilda 30 ga yaqin foydalanuvchi tarmoq orqali guruhga qo'shilganligini e'lon qildi. Aum Shinrikyō Net aloqa guruhi ta'lim va videokliplar haqida tushuntirishlarni o'z ichiga olgan. Foydalanuvchilariga guruh tomonidan ishlab chiqarilgan materiallarga kirishni ta'minladi. Free Talk (furī tōku) deb nomlangan chat saytida foydalanuvchilar Aum Senrikyo haqida savollar berishlari, foydalanuvchilar o'z fikrlari va g'oyalarini erkin ifoda etishi mumkin. O'sha paytda Aum Shinrikyō Net yangi a'zolari jalb qilishda kompyuterga asoslangan prozelitizm edi. Guruh faoliyati uchun onlayn aloqalar ham oflayn uchrashuvlarni olib keldi. Aloqa tarmog'iga Aumning ta'limoti va amaliyoti to'g'risida batafsil ma'lumotlar kiritilgan va foydalanuvchilar Aum musiqasini, Asaxaraning nutqlari, shuningdek uning ba'zi nashrlari, "Seishi o koeru" (Hayot va O'limdan tashqari) matnini yuklab olishlari mumkin edi. O'sha davrda boshqalar dinlarning veb-saytlari bilan taqqoslaganda Aum-internet yuqori darajadagi interaktivlik va grafikaga chuqurroq e'tibor berganligini ko'rsatdi. 2000 yil iyul oyida tashkilotning rus a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlangan "Aleph.to" yangi

² N. Morgan, G. Jones, and A. Hodges, "Social Media: The Complete Guide to Social Media From The Social Media Guys," 2012. <http://www.yumpu.com/en/document/view/5539277/the-complete-guide-to-social-media-the-social-media-guys>.



aloqa tarmog'i vujudga keldi. Tarmoqda foydalangan Internet a'zolari bilan aloqada bo'lish va reklama vositasi sifatida Alef Internetda juda faol bo'lgan³.

Xulosa qilib aytgandan, hozirgi globallashuv zamonida media makondan foydalanish to'g'ri maqsadda bo'lishi kerak. Insonning noto'g'ri bosgan qadami hayoti va kelajagiga ofatlar keltirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.<http://bumoturs.ru>. Ommabop internet xabarchilari.06/14/2019.
- 2.N. Morgan, G. Jones, and A. Hodges, "Social Media: The Complete Guide to Social Media from The Social Media Guys," 2012. <http://www.yumpu.com/en/document/view/5539277/the-complete-guide-to-social-media-the-social-media-guys>.
- 3.Bafelli E. Media and New Religions in Japan. – New York:Routledge is an imprint of the Taylor & Francis Group, 2016. – P. 123.



³ Bafelli E. Media and New Religions in Japan. – New York:Routledge is an imprint of the Taylor & Francis Group, 2016. – P. 123.